ARTPEDAGOGIKA KONSEPSIYA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, UNING SAN'AT BILAN INTEGRATSIYASI

E.I.Xayriyev[1], S.S.Badriddinova[2]

1. Samarqand davlat pedagogika instituti Informatika kafedrasi v.b. dotsenti (PhD)
2. Samarqand davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasi Pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorant

Mas'ul muallif: Xayriyev Elyor Ibragimovich, Samarqand davlat pedagogika instituti Informatika kafedrasi v.b. dotsenti (PhD).

e-mail: x_elyor@mail.ru

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Xayriyev, E. I. ARTPEDAGOGIKA KONSEPSIYA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, UNING SAN'AT BILAN INTEGRATSIYASI / E. I. Xayriyev, S. S. Badriddinova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 161–163.

Annotatsiya. Mazkur maqolada artpedagogika konsepsiyasining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, nazariy-metodologik asoslari hamda zamonaviy ta'lim jarayonida san'at bilan integratsiyalashuvining pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Artpedagogika shaxsning intellektual, ijodiy, emotsional va estetik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik yondashuv sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, artpedagogik yondashuvni zamonaviy pedagogik faoliyatda qo'llashning asosiy yo'nalishlari tizimlashtirilib, uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: artpedagogika, san'at, integratsiya, estetik tarbiya, ijodkorlik, pedagogik konsepsiya, badiiy ta'lim, shaxs rivojlanishi.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ АРТПЕДАГОГИКИ И ЕЁ ИНТЕГРАЦИЯ С ИСКУССТВОМ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются формирование концепции артпедагогики, этапы её исторического развития, теоретико-методологические основы, а также педагогические возможности её интеграции с искусством в современном образовательном процессе. Артпедагогика рассматривается как инновационный педагогический подход, способствующий интеллектуальному, творческому, эмоциональному и эстетическому развитию личности. Кроме того, систематизированы основные направления применения артпедагогического подхода в современной педагогической деятельности и обсуждаются перспективы его использования для повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: артпедагогика, искусство, интеграция, эстетическое воспитание, творчество, педагогическая концепция, художественное образование, развитие личности.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE ART PEDAGOGY CONCEPT AND ITS INTEGRATION WITH ART

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the formation of the concept of art pedagogy, the stages of its historical development, its theoretical and methodological foundations, and the pedagogical potential of its integration with art in the modern educational process. Art pedagogy is characterized as an innovative pedagogical approach that promotes the intellectual, creative, emotional, and aesthetic development of individuals. Furthermore, the main directions for applying the art pedagogical approach in contemporary educational practice are systematically examined, and its prospects for enhancing the effectiveness of the educational process are discussed.

Keywords: art pedagogy, art, integration, aesthetic education, creativity, pedagogical concept, art education, personal development.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida nafaqat shaxsning intellektual salohiyati, balki uning emotsional tomondan rivojlanishi, estetik dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri rivojlanishiga alohida etibor qaratilmoqda. Dunyo bo'yicha bir qator davlatlarda pedagogiga sohasida ta'lim metodlari va ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar bo'layotganligi sababi ham talaba o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun ishlab chiqilayotgan innovatsiyon ta'lim texnologiyalari va yangicha pedagogik yondashuvlar hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan ta'lim tizimida bir qator yangiliklar yaratilib boshlandi, xususan yangicha shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning rivojlanishi natijasida san'atning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi omil sifatida foydalanishga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Shu jarayonda pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik fanlari kesishgan nuqtada yangicha ilmiy yo'nalish – artpedagogika fani shakllana boshladi. Artpedagogika ta'lim va tarbiya jarayonida san'at vositalaridan samarali foydalanishning

nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etiladi. Pedagogikaning ushbu yo'nalishi nisbatan yangicha yondashuv hisoblansada, uning g'oyasining paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyotga borib taqaladi.

Artpedagogika atamasi XX asrda Rossiyada fan sifatida muomalaga kiritilib boshlanagiga qaramasdan uning nazariy va metodologik ildizlari antik davr Yunoniston falsafasi, qadimgi svilizatsiyalar estetikasi ta'lim-tarbiyasi tizimiga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston, Xitoy, Rim, Yaponiya, Xitoy va boshqa davlatlarda ham artpedagogikaning ilk g'oyalari paydo bo'lgan. O'tgan mana shu davrlarda san'at insonning ijodiy salohiyati ma'naviy dunyosini estetik didini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi artpedagogikaning tarixiy-falsafiy ildizlarini ochib berish va san'at vositalarining pedagogik vazifalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va metodlar

Ish tarixiy-pedagogik va nazariy tahlilga asoslanadi. Manba sifatida maqolada qayd etilgan antik davr pedagogik qarashlari, Komenskiy, Russo, Pestalotsi va Fryobel g'oyalari hamda pedagogika adabiyotlari olingan; tarixiy taqqoslash, mavzular bo'yicha guruhlash va konseptual umumlashtirish usullari ishlatilgan. Tajriba guruhi, respondentlar yoki miqdoriy pedagogik sinov haqida ma'lumot keltirilmagan.

Art-pedagogika tushunchasining epistemologiyasi turli davrlardagi pedagogik va falsafiy g'oyalarga asoslanadi. Hozirgi vaqtda rossiyalik va xalqaro olimlar san'atni inson ruhiy kechinmalarini chuqur o'rganish, ta'lim jarayonini maqbullashtirish, insonga ta'sir ettirish, shaxsni jamiyatga moslashtirish (sotsializatsiya) uchun eng samarali vositalardan biri deb hisoblamoqda.

Artpedagogikaning paydo bo'lish tarixi san'atning turli yo'nalishlarini turli xil maqsadlarda ijobiy natija olish qo'llanish bilan boshlangan. Insoniyat svilizatsiyasi boshidanoq turli kasb egalari xususan ruhoniy, shifokorlar, faylasuvlar hamda o'qituvchilar ruh va tanani davolash hamda insonga yaxshi ta'sir o'tkazish maqsadida san'atdan foydalanishgan.

Natijalar

Nazariy tahlilda san'atning turli davrlardagi ta'limiy imkoniyatlarini aks ettiruvchi quyidagi yo'nalishlar ajratildi.

Tarixiy-pedagogik yo'nalish	San'at vositasi	Ta'limiy vazifa
Qadimgi Yunoniston	Tasviriy san'at, teatr, musiqa	Axloqiy-estetik tarbiya
Komenskiy va Russo	Namuna, mashq, rasm, raqs	Qiziqish va tabiiy qobiliyatni rivojlantirish
Pestalotsi	Rasm va shakllarni chizish	Idrok va tafakkurni mashq qildirish
Fryobel	O'yin, qo'shiq, yasash va chizish	Ijodkorlik, mustaqil faoliyat

Art-pedagogikaning tarixiy va falsafiy ildizlari. Artpedagogika g'oyasi ilk marotaba tasviriy san'at yo'nalishi orqali Qadimgi Yunonistonda paydo bo'la boshladi. Tasviriy san'at Qadimgi Yunonistonda insonga ta'sir etishning samarali vositasi sifatida qaralgan. Galereyalarda insonning ezgu fazilatlarini («Mehr-shafqat», «Adolat» va boshqalar)ni ifodalovchi haykallar namoyish etilgan bo'lib, ularning fikricha turli xil go'zal haykallarni tomosha qilish orqali insonlar ularda aks etgan eng yaxshi narsalarni o'ziga singdiradi va o'zlashtiradi deb ishonishgan. Turli suratlar ham ular tomonidan huddi shunday qadrlangan. Shundan ma'lumki ular tasviriy san'atni insonga fazilatlarni tasir ettirish yo'li sifatida foydalangan.

Qadimgi Yunonistonda teatrga ham alohida ahamiyatga berishgan. Birinchi teatr ham aynan Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Yunonistonning turli hududlarida xususan Afina, Sparta teatr davlat muassasasi ham bo'lgan. Ular teatr yordamida muayyan g'oyalar targ'ib qilib, xalqning dunyoqarashini kengaytirishda foydalanishgan. Bu ham artpedagogik yondashuvlardan biri edi. Teatr tomoshabinlarga qahramonlik va irodani tarbiyalashda katta rol o'ynagan.

Qadimgi yunon faylasuflari Pifagor (miloddan avvalgi 6-asr), Aristotel va Platon (miloddan avvalgi 4-asr) musiqaning profilaktik va terapevtik kuchiga urg'u berishgan. Ular musiqa butun koinotda, jumladan, inson tanasidagi buzilgan uyg'unlikni tiklaydi, deb ishonishgan. Musiqa, ayniqsa uning asosiy tarkibiy qismlari - ohang va ritm - insonning kayfiyatini o'zgartirishi va uning hissiy holatini qayta qurishi kuzatilgan.

Qadimgi Yunonistonda qat'iy va qattiqqo'l sparta ta'limi nafaqat jismoniy kuch va harbiy mahoratni rivojlantirishga qaratilgan, balki adabiyot, musiqa hamda raqs ham ruhiy kuchlarni mustahkamlashga hissa qo'shgan. Platon o'zining «Davlat» («The Republic») asarida jismoniy tarbiyaning (gimnastikaning) tana uchun, musiqaning esa ruh uchun tutgan o'rnini yuqori baholagan. Ta'kidlash joizki, kalokagatiya («ezgulik va go'zallik uchun tarbiya») g'oyasi ostida faoliyat yuritgan kifarachi (musiqa) maktablarida raqs, cholg'u va yakka hamda xor vokal musiqasi o'rgatilgan. Teatrlar, ibodatxonalar, haykaltaroshlik majmualari va adabiyotda evritmiya deb ataluvchi tarbiyaviy (pedagogik) muhitning yaratilishi yoshlarning barkamol kamol topishiga xizmat qilgan.

O'rta asrlarda lirik adabiyot, dunyoviy va diniy mavzudagi tasviriy san'at hamda muqaddas musiqa qadrlangan bo'lib, ta'lim asosan insonparvarlik xarakteriga ega bo'lgan. Uyg'onish davri madaniyatida Humanistik harakat insonni madaniy intilishlarning markaziga qo'ydi, shu sababli ta'limning o'zagi «gumanitar fanlar» - inson haqidagi fanlar va san'atni o'rganishdan iborat bo'ldi. Klassik pedagogik vakillarning qarashlarida san'atni qo'llashga oid bir nechta misollarni keltiramiz.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy konsepsiyasiga ko'ra, «inson agar haqiqiy inson bo'lishni istasa, fanlar, tillar va san'atni rivojlantirishi kerak» hamda «o'quvchilarni ilm-fan cho'qqilariga qiyinchiliklar, nafrat, baqir-chaqir va urush-janjalsiz, balki o'yin va hazil-mutoyiba shaklida olib chiqish lozim» degan jumlalarni keltirgan. Muallif asarlarida fanlar, tillar va san'atga tabaqalashtirilgan (alohida) holda qo'llanishi kerak bo'lgan usullarni ko'rsatib o'tadi va san'at sohasida namuna (model) hamda mashqni eng samarali vositalar sifatida taqdim etadi.

Jan-Jak Russo fransuz faylasufi, ma'rifatparvar yozuvchi va kompozitor bolaning erkinligi haqida fikr yuritar ekan, bu erkinlik bolaning tabiatini hisobga oladigan hamda uning qobiliyatlarini, ayniqsa raqs va rasm chizish orqali rag'batlantiradigan tarbiya bilan qo'llab-quvvatlanishini aytadi.

Yoxann Genrix Pestalotsi shveysariyalik pedagog, boshlang'ich ta'lim nazariyasi asoschisi intuitsiya va fikrlashni mashq qildirishda rasm chizishning o'rnini alohida ta'kidlaydi: «Chiziqlar, burchaklar va doiralarni chizish... nozik farqlarni (nyuanslarni) baholash... narsalarning konturlarini (shaklini) o'qiy olish ko'nikmasi aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi va amaliy mashg'ulotlarni yuksak darajada o'zlashtirishni osonlashtiradi» [302]. Pestalozzi, J., H. (1977), How Gertrude teaches her children, translated by Victoria C.Petrescu, Bucharest: Didactic and Pedagogic Publishers, page 56.

Fridrix Fryobel- maktabgacha ta'lim asoschisi va dunyodagi ilk bolalar bog'chasi g'oyasining muallifi bo'lgan mashhur nemis pedagogidir. U bolalarga tarbiya berishda o'yin va tabiat bilan uyg'unlik muhimligini birinchi bo'lib amaliyotga tatbiq etgan. O'yin orqali o'rganish: U ilk bor ta'lim jarayonida bolaning ijodiy qobiliyatini va mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun o'yin asosiy vosita ekanligini isbotlagan. inson tarbiyasida (tana va ruh uchun) muhim o'rin tutadigan san'atni qo'llashni tavsiya etadi va o'zi taklif qilgan usullarni «sovg'alar» deb ataydi: geometrik shakllar bilan o'yinlar, harakatli o'yinlar, ertak aytish, qo'shiq va she'riyat.

Fridrix Fryobel o'yin, san'at va ijod orqali ta'lim berish g'oyalarini o'zining «Inson tarbiyasi» (nemischada: «Die Menschenerziehung», inglizchada: «The Education of Man») nomli eng mashhur va fundamental asarida yozgan. Bu kitob 1826-yilda nashr etilgan bo'lib Fryobel ushbu asarida va o'z pedagogik tizimida o'yin hamda san'atni quyidagicha asoslab beradi:

O'yin - eng oliy faoliyat: Kitobda u o'yinni «bolalik davridagi insoniy rivojlanishning eng oliy ifodasi» deb ataydi. O'yin bolaning ichki dunyosini, ijodkorligini va erkinligini namoyon qilish vositasidir. [1, 2]

San'at va rasm chizish: Fryobel bolalarning chiziqlar chizishi, geometrik shakllar yasashi va kuylashini shunchaki ermak emas, balki atrof-muhitni anglash va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi san'at deb hisoblagan. [1, 2]

"Sovg'alar» (Gifts) va «Mashg'ulotlar» (Occupations): Asarda u ishlab chiqqan tizimga ko'ra, bolalar yog'och bloklar (sovg'alar) bilan o'ynash barobarida rasm chizish, loydan narsalar yasash, qog'oz qirqish kabi badiiy mashg'ulotlar (san'at) bilan ham shug'ullanishgan.

Muhokama. Tarixiy dalillar san'atga murojaat qilishning turli shakllarini namoyon etadi: antik manbalarda estetik va axloqiy ta'sir, klassik pedagogikada esa bola faoliyati, sezgi idroki va ijodkorlikni rivojlantirish markaziy o'ringa chiqadi. Ushbu izoh konseptual tahlil natijasidir; artpedagogikaning zamonaviy sinfdagi miqdoriy samaradorligi mazkur maqolada o'lchanmagan.

Amaliy tatbiqda musiqa, tasviriy san'at, teatr va ijodiy o'yinlarni o'quv maqsadiga mos qo'llash muhim. Bunda o'quvchi yoshi, inklyuziv imkoniyatlar, materiallarning mavjudligi va baholash mezonlari hisobga olinishi lozim.

Xulosa. Artpedagogika konsepsiyasining tarixiy rivojlanishi san'atning ta'lim-tarbiya jarayonida muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi yunon faylasuflari hamda Komenskiy, Russo, Pestalotsi va Fryobelning pedagogik qarashlari artpedagogikaning nazariy asoslari shakllanishiga xizmat qilgan. San'atning ta'lim bilan integratsiyasi shaxsning ijodiy tafakkuri, estetik didi, emotsional madaniyati va mustaqil fikrlashini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois artpedagogik yondashuvlardan zamonaviy ta'lim jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Lex.uz.
[2] Abdullayeva B.S. Umumiy pedagogika (1-qism). Darslik. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. - 342 b.
[3] Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Alqarov I.Sh. Pedagogika. Darslik. - Toshkent: Noshir, 2011. - 448 b.
[4] Mattiyev I.B. ART-pedagogika. O'quv qo'llanma. - 212 b. Elektron kutubxona.
[5] Mavlonova R., Normurodova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Tib-kitob, 2010. - 216 b.
[6] Mavlonova R., To'rayeva O. Pedagogika. Darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2010. - 496 b.
[7] Mavlonova R., Vohidova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. - 464 b.